XITOY FUNDAMENTAL TA’LIMI TARAQQIYOTINI TAHLIL QILISHNING “UCH O‘LCHAMLI” DOIRALARI

Xojibekov Ro‘zimurod Uyg‘un o‘g‘li
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (fizika va astronomiya) mutaxassisligining 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: So‘nggi yillarda Xitoyda oliy ta’lim sifati sezilarli darajada yaxshilandi. O‘tgan yil yakunlari bo‘yicha Xitoyning 23 ta oliy o‘quv yurti dunyoning eng yaxshi 500 ta universitetlari qatoriga kiritilgani ham buning dalilidir. Pekin va Shanxay universitetlari mahalliy abituriyentlar orasida eng mashhuri hisoblanadi. Xitoy universitetlarida nufuzli mutaxassisliklar uchun raqobat juda katta. Shu sababli, ko‘pchilik bitiruvchilar o‘qishga kirish imkoniyatlarini real baholaydilar.

Kalit so‘zlar: fundamental ta’lim, sifat va miqdor, nazariy bilim, amaliyot, taraqqiyot, tahlil, avval harakat, so‘ngra bilim.

Qadimgi Xitoy fanlari o‘z navbatida sifat va miqdorga bo‘lingan. Sifat fanlari – bu tibbiyot, alkimyo, munajjimlik, geometriya va turar joy binolarining qulay joylashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan, shuningdek, fizika, qadimgi tabiat falsafasiga o‘xshash va sehrli sxemalardan foydalangan holda tabiiy hodisalarni tahlil qilish uchun mikro va makroolamning mos kelish g‘oyasidir.

Miqdoriy fanlarga esa algebraik hususiyatlarga ega bo‘lgan matematik, geometrik, matematik garmonika esa Pifagor tipidagi fan bo‘lib musiqa usullarini yaratishning sonli qonuniyatlarini o‘rganadi va astranomik hodisalarni bo‘ysindiruvchi matematik astranomiya kirtadi.

Bizning zamonamizda zamonaviy ilm fan nuqtai nazaridan qadimgi Xitoy fanining yutuqlari va yuksakliklarini amalga oshirish juda qiyin. O‘tgan asrda ham moddalarning asosiy tarkibi haqida turli hil fikrlarga ega bo‘lgan ilmiy maktablar mavjud edi [1].

Ularning g‘oya va nazariyalarida moddalar va ularning turli darajadagi o‘zgarishlari aks etgan. Qadimgi Xitoy olimlari hech qanday apparat va jihozlarsiz atomda elektronlar, neytronlar va protonlar mavjudligini, barcha moddalar kelib chiqishi va shaklidan qatiiy nazar atomlardan tashkil topganligini aniqlaganliklari bizga aql bovar qilmaydigan tuyuladi, Qadimgi Xitoy mutafakkirlari xatto zarracha tezlatgizchdan foydalanmasdan ham mikroskopik darajada turli bo‘shliqlarda moddalar mavjudligini bilishgan.

Abatta, Xitoy ta’limi taraqqiyoti yo‘li "Xitoy siyosati xususiyati” nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa, xitoycha kontekst va Xitoycha taraqqiyot yo‘lining o‘ziga

xosligi ko‘zga tashlanadi, lekin bular, baribir, tashqi sabablardir. Ta’lim nuqtayi nazaridan ichkaridan nazariya va amaliyot o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatni ham o‘rganish kerak. Zamonaviy davr konteksti nuqtai nazaridan ta’lim sohasidagi har qanday islohotlar ko‘proq o‘ziga xos aniq bir maqsadga qaratilgan amaliyol hisoblanadi. Bu aniq maqsadga qaratilganlik ikkita omil bilan bog‘liq, birinchidan, o‘quvchilar uchun ta’lim jarayoni har qanday maktabda «bir martalik» yoki «qaytalanmaydigan»dir, shu bois ta’lim sohasidagi har qanday islohotlar tajribasi o‘quvchilarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi uchun puxta loyihalashtirilishi zarur: ikkinchidan, ta’lim nazariyasining muntazam boyib, joriy qilib borilishi sharoitida ushbu barcha islohotlar tajribalri amaliy muammolarni yechish jarayonida ta’lim nazariyasi madadiga tayanishi. ta’lim nazariyasi talablariga javob berishi yoki ta’lim nazaryasi bilan faol muloqotni yo‘lga qo‘yishi shart.

Agar islohotlar va ochiqik siyosati o‘tkazilganidan keyin fundamental ta’lim taraqqiyotiga sabab bo‘lgan turli darajada, katta-kichik hududlar, maktablarda amalga oshirilgan harakatlar va islohotlar tadqiq qilinsa, OO‘Ylari yoki tadqiqot muassasalaridagi ko‘plab ta’limning professional tadqiqotchilari ishtirokini ham ko‘rish mumkin, shu tariqa ta’lim nazariyachilari va amaliyotchilari o‘rtasida o‘zaro munosabat va muloqot yuzaga keltirilmoqda [2]. Ayniqsa, hozir ko‘plab hududiy yoki maktab darajasidagi yangilanishlar OO‘Ylari hamda boshlang‘ich va o‘rta maktablardagi kasbdoshlarning birgalikda ishlashi orqali amalga oshirilmoqda, nazariya va amaliyot aloqasi masalasi muqarrar “real masala”bo‘lib qoldi. Professor Ye Lan ta’kidlaganidek, “bu ta’lim islohotlari amaliyoti masalasidir”. «Hozir nazariyachilar bisyor, OO‘Ylarimiz o‘qituvchilari va ilmiy-tadqiqot sohasi vakillari - barcha mazkur masala ustida ishlamoqda, lekin nazariya va amaliyot muammosi hal bo‘lganmi? Fikrimcha, ular o‘rtasida farqlar mavjud, ularni o‘rganish shart.

Aslida, ta’limdagi yangilanishlar maydonida nazariya va amaliyotning mazkur modelida uchta tur ko‘zga tashlanadi.

1) “Nazariyani tatbiq qilish” modeli. Mavjud nisbatan yetuk nazariya ta’lim amaliyotida qo‘llaniladi, bu ancha keng tarqalgan model. U dastlab anglash, shundan keyingina harakat qilish kerak (ya’ni avval nazariya, so‘ngra amaliyot) deya uqtiradi, uning fikricha, amaliyot hamisha nazariy boshqaruvga muhtoj, maqsadga muvofiq amaliyotning majburiy sharti to‘g‘ri nazariya hisoblanadi.

2. “Nazariyaning amaliyotda namoyon bo‘lishi”modeli. Bu model amalda mavjud bo‘lgan amaliyotdan nazariya yaratishni yoki mavjud amaliyotga nazariy asoslar qidirishni nazarda tutadi. Mazkur modul «avval harakat, so‘ngra bilim kerak» deb ta’kidlaydi, uning ishonishicha, amaliyot nazariyadan oldin paydo bo‘ladi, samarali ta’lim amaliyoti ishonchli ta’lim nazariyasining manbai hisoblanadi, shu bois ta’lim nazariyasi real, aniq va boy ta’lim amaliyotidan dunyoga kelishi mumkin.

3. “Ikki tomonlama tashkil etish” modeli. Bu model nazariya va amaliyotning ikki

tomonlama hamkorligi, birgalikda tashkil etilishini nazarda tutadi. Agar avvalgi ikki modelda nazarya va amaliyot o‘rtasidagi aloqalar sodda, tadrijiy bo‘lsa, mazkur modelda ularning aloqalari ikki tomonlama va sinxrondir. Bu model nazariya yoki amaliyotdan qaysi biri muhimroq degan savolga javob qaytarishdan bosh tortadi. Bir tomondan, modelning e’tiroficha, ularning ikkalasi ham nisbatan mustaqil va o‘z xususiyatlari hamda vazifalariga ega, shu bois bir-birining o‘rnini bosishi yoki shunchaki bir butun bo‘lib birlashishi imkonsiz, aynan mana shu mustaqil xususiyat ikki tomonlama hamkorlik hamja muloqot imkoniyati va zaruratini taqdim etadi; boshqa tomondan, maktabdagi yangilanishlardagi nazariya va amaliyotning teng qiymatli holatiga urg‘u beradi, faol munosabatlar tufayli ular muntazam rekonstruksiya imkoniyatini qo‘lga kiritadi, bundan ham muhimrog‘i, birgalikda yangi shakllar va yangi vaziyatni yuzaga keltiradi. Buning uchun tajriba maydoni maktab hisoblanadi, markazda yangilanishlar joylashadi, ta’lim nazariyachilari va amaliyotchilarini birlashtirishni rag‘batlantiradi, «tadqiqot-amaliyot» jamiyatini shakllantiradi.

Shunday qilib, xulosa tariqasida yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilib Xitoyning jahon kashfiyoti va ilmiy bilimlari tarixiga qo‘shgan hissasi haqiqatdan ham katta va katta qiziqish uyg‘otadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xitoyda astronomik kuzatishlar [Elektron resurs] //Kirish manzili :: // www.asha piter.ru/06_01_Lab/06_01_Lab_ Astronimy_see_history_01.htm VasilevL. S.Xitoy tarixi: darslik.-M.: Oniks, 2007y
2. Qadimgi Xitoy olimlari alkimyo haqida ma’lumotga ega edilar [Elektron resurs] //Kirish manzili: #"justify" >So‘ nggi chiqarilgan sana: 11/11/2013